

Tasviriy san'at darslarida akvarel bo'yog'ida natyurmort ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish

Xudoyberdiyev Mirolim

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail:mirolimxudoyberdiyev@gmail.com*

***Annotatsiya.** Tasviriy san'at turlarining ichida Rangtasvir o'zining serjiloligi bilan ajralib turadi Rangtasvirda ham bir nechta bo'yoq turlari mavjud bo'lib bularning ichida Akvarel ajralib turadi. Bu bo'yoq turi o'zining yorqinligi vanafisligi bilan alohida o'ringa ega. Quyida akvarel yordamida mavzuli kompozitsiyalarni yaratishni o'rgatish ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** Akvarel, qo'yilma, reflex, tus, ton, hajm, kompozitsiya*

***Annotation.** Painting is one of the most popular types of fine art. Painting also has several types of paints, including watercolor. This type of paint has a special place due to its brightness and vanity. Here's how to put one together for use with watercolors.*

***Keywords:** Watercolor, setting, reflex, hue, tone, volume, composition*

Akvarel bo'yog'ida dastlabki mashqlarni bajarish uchun 3-5 ta narsadan iborat, rang va tus munosabatlari bir-biridan farq qiladigan, shakli bo'yicha uncha murakkab bo'lmagan buyumlar bo'lishi kerak. Sodda qo'yilmalarni astoydil ishlab ijobiy natijalarga erishmasdan turib, murakkab natura qo'yilmalarini bajarishga o'tish noto'g'ri. Akvarel bo'yog'ida mashqlarni muntazam ravishda bajarish va ularni asta-sekin murakkablashtirib borish maqsadga muvofiq.

Uzoq vaqtga mo'ljallangan har qanday vazifa oldidan dastlabki qisqa muddatli etyudlarni bajarish muhimdir. Shu tariqa bajarilgan ranglavhalar tasvirlanayotgan naturani katta hajmga ega bo'lgan matoda yoki qog'ozdagi kompozitsiyasini to'g'ri topishga ko'maklashadi va ishlash jarayonida naturadagi dastlabki taassurotlarni aniq yetkazishda va uning rang munosabatlariga xos xususiyatlarini aniq ko'rsatishda namuna bo'ladi.

Natyurmortni akvarel bo'yoqlari bilan rangda ishlash jarayonini (ko'rgazmali) amaliy namoyish etish uchun biroz murakkab bo'lgan meva, sabzavotlar va maishiy narsalardan tuzilgan natura qo'yilmasini olamiz. Qo'yilmadagi sopol idish tekis yaltiroq yuzaga ega, shuningdek, ravshan ifodalangan (nur) shu'lasini mavjud. Hamma narsalar stol ustiga joylashtirilgan, orqada yorqin kul rangdagi devor foni va sidirqa matolar. Mevalarda aniq

belgilangan shaxsiy, tushuvchi va yarimsoyalar aniq ko`rinib turibdi. Sopol idishda iliq va sovuq reflekslar mavjud. Bunday tuzilgan natyurmortning qalamtasviri qiyinchilik tug`dirmaydi, ammo ranglarda tasvirlash biroz murakkabroqdir, chunki mevalarning aniq rangini tasvirlash uchun rang munosabatlariga qat'iy amal qilish zarur. Bo`yoqni dastlabki qatlamini qo`yishdan boshlab rang munosabatlaridagi mutanosiblikni saqlab borish kerak. Akvarel bo`yoqlari qurigach biroz oqaradi, shuning uchun ham ularni rang jihatdan to`qroq olish mumkin.

Akvarel bo`yoqlari bilan tasvirlash jarayonida narsa va buyumdagi yorug` bo`lib turgan qismlarini bo`yamaslikka harakat qilish kerak.

Malaka ortib borgan sari kerak bo`lgan tuslarni tezda hosil qilish mumkin, qog`oz yuziga qanchalik ortiqcha bo`yoq qatlami surtilsa, narsalarning rangi xira bo`ladi. Madomiki, ranglarni birdaniga olinib kerakli joyga surtilsa, uning yonidagi tuslarni ham topish yengil ko`chadi.

Birdaniga tanlab qo`yilgan ranglar naturadan bevosita birinchi taassurotlarni anchagina to`g`ri yetkazadi. Tasvirlovchi har bir narsaning hajmdor shaklini soya yorug`ning o`zgarishi bilan bog`liq bo`lgan, uning rang o`zgarishlarini ham e`tibor bilan kuzatib borishi kerak. Jigarrang idish yarim soyada va yorug`likda xilma-xil rang turiga ega. Fondan tushayotgan reflekslar jigarrang emas, balki siyoxrangdir. Undan tashqari mevalar soyasida reflekslar mavjud, ular o`zaro och-to`qligi bilan va rang turlari bo`yicha farqlanadi.

Eslatib o`tmoqchimizki, hamma (narsalar) buyumlarni bir vaqtning o`zida och-to`qligi, rangdorligi va to`yinganligini taqqoslagan holda rang bilan bo`yash kerak. Demak narsalarni yakka kuzatmasdan, aksincha to`plamni yaxlit ko`rishga harakat qilish lozim. Yonma-yon turgan ikkita narsaning rang farqlarini taqqoslash qiyin emas. Agarda oldimizda o`nta narsadan tashkil topgan natyurmort bo`lsa, har bir narsaning rangini yakka holda, shuningdek hammasi bilan birgalikda yaxlit taqqoslash zarur. Ya`ni xuddi orkestrda bo`lgani kabi.

Orkestr – bu musiqa asboblaridan tashkil topgan ansambl bo`lib, faqat dirijyorgina bu ansamblidagi barcha musiqa asboblarini bir vaqtda o`zi eshitadi. Rangtasvirda ham xuddi shunday, faqat yahlit idrok etish natijasida narsalar guruhining rang munosabatlarini to`g`ri aniqlashga imkon beradi.

Har bir narsaning hajmdor shakliga ishlov berishda undagi mavjud iliq va sovuq rang turlarini diqqat e`tibor bilan kuzatish lozim. Shu bilan birga eng muhimi umumiy tus va ranglar gammasini (barcha bo`yoqlarni uyg`unlik birligi) nazardan chiqarmaslik kerak.

Narsalarning shu`lalarini tasvirlash mobaynida ularning jozibali ranglarini unutib faqatgina yorqinligiga erishish bilan chegaralanish kerak emas.

Har bir narsaning och-to`qligi va rangdorligi fon bilan atrofdagi narsalar rangi va och-to`qligiga bog`liq bo`lsa, unda narsa rangini atrofdagilari

bo`yalmaguncha to`g`ri ifodalash mumkin emas. Agarda bitta narsaning rangi o`zgartirilsa, bu bilan birga ularning yonidagi bo`laklarini ham o`zgartirish kerak. Soyalar to`qlashtirilsa yorug` yanada yorqinlashadi. Ammo fonni qoraytirsak unda narsalardagi yorug` aniq ajralib, soyalarning kontrastligi yo`qoladi.

Narsalarning old va orqa ko`rinishlar orasidagi kenglikni ko`rsatishga ham e`tiborni qaratish lozim. Natyurmortdagi narsalar bir-biridan turli masofada joylashadi, yaqindagi narsalar yorqinroq ko`rinadi. Agarda uzoqda turgan narsalarning ranglarini yengilroq va xiraroq olinmasa, oldingi qatorga chiqib ketadi. Natyurmortni tasvirlash vaqtida havoiiy perspektivaning ta`sirini har doim ham naturada yengil sezish qiyin; shunga qaramay buni har doim yodda tutib qalam bilan tasvirlashda bitta narsani yaqinroq joylashtirib, boshqasini esa uzoqlashtirib tasvirlash kerak.

Agarda bo`yoq mo`yqalam va suv bilan yaxshilab eritilgan bo`lsa, qog`oz yuzasida yorqin tasvir hosil bo`ladi. Mabodo aksi bo`lsa u holda qog`oz sathida mo`yqalam izlari qoladi, ish esa sifatsiz chiqadi.

Akvarelda tinmay vazifalar bajarish, turli usul va uslublarda astoydil ishlash orqali ko`nikma va malaka ortib boradi. «Yorqin» yozish texnikasi narsaning materialligini aniq ko`rsatishda va chuqur soya joylarini shaffof bo`lishiga imkoniyat beradi. Agarda ish jarayonida ikkala uslubdan samarali foydalanilsa: barcha soya joylarini va reflekslarni faqat «yorqin» uslubda, yorug`lik va yarim soyalarni esa – «quruq» usulda ishlash yaxshi natija beradi. «Yorqin» uslubda ishlash «quruq» ishlashdan ustun bo`lishi kerak.

Narsalarning yoritilgan joylari aniq tashqi ko`rinishga ega. Soya va uzoq ko`rinishdagi tus va rang kontrastlari sustroq, shakllari esa yaqqol tashqi ko`rinishga ega emas. Soya va orqa ko`rinishdagi narsalarning tasviri umumlashtirilgan holda bo`lishi lozim. Aynan shu joyda namligicha ishlash usulini qo`llash ma`qul. Ishlashdan oldin qog`ozni toza suv bilan yumshoq latta yoki katta mo`yqalam yordamida bir sidra ho`llanadi. Ikki-uch daqiqadan so`ng qog`oz suvni shimib olgach akvarel bilan ishni boshlash mumkin. Bo`yoq surtmalari nam qog`oz yuzida eyilib, bir-biri bilan qo`shilib, mayin va nozik o`tishlar hosil qiladi. Agarda biror-bir joyini ajratish lozim bo`lsa, qog`ozni quritib kerakli bo`yoq surtmasi beriladi yoki «quruq mo`yqalamda aniq rangli chegarani talab etilgan joylari to`qlashtiriladi. Namligicha ishlash usuli tasvirni nihoyatda nozik va jozibali ko`rsatishga imkon tug`diradi. Akvarel bo`yoqlari bilan ishlash jarayonida soya-yorug`dagi nozik o`tishlarni silliq lab borish kerak emas.

Quruq qog`ozdagi kuchli namlangan bo`yoq dog`i qurigandan so`ng juda ham yaqqol kontur paydo qiladi. Shuning uchun bunday dog`larni chekka qirralarini qurimasdan yumshatish lozim. Tasvirlanayotgan etyud muvaffaqiyatsiz chiqsa, tulari xira bo`lsa ish jarayonini to`xtatib katta mo`yqalam yoki paralon

yoki momiq paxta yordamida ishni yuvib tashlash kerak. So`ngra ishni qayta akvarel bo`yog`ida ishlash maqsadga muvofiqdir. Juda namlangan qog`oz odatda bo`rtadi, egiladi, ammo qurigan paytda yana tortilib uning yuzida ishni davom ettirish mumkin.

Akvarel bo`yoqlarida bajariladigan dastlabki o`quv mashg`ulotlari har doim ham ko`ngildagidek bo`lavermaydi. Ranglar xira, kir va sifatsiz bo`ladi. Bunday holatda cho`chish kerak emas, chunki taniqli rassomlar ham dastlabki o`rganish jarayonida barcha qiyinchiliklarni boshlaridan kechirganlar.

Umuman haqiqiy mahorat tinmay o`qish, o`rganish va izlanish jarayonida hamda astoydil amaliy mashqlarni bajarish orqali yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.K. Apuxtin .Tasviriy san`at asoslari. 1967y. Toshkent O`qituvchi 1984y.
2. B..AK.Azimova .Natyurmort chizish va tasvirlash metodikasi. 1984y Toshkent. O`qituvchi.
3. G.M.Abduraxmonov. Tasviriy san`at kompozitsiyasi. 1996y. Toshkent.
4. S. Abdirasilov.Rangtasvir. Toshkent 2012y.
5. Xudoyberdiyev, M. (2021). “Manzara rangtasvirini” o`qitishda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning usullari. *Jurnal muziki i iskusstva*, 2(2).
6. Baymurzayeva, O. S. (2020). Ixtisoslashgan san`at maktablarida o`quvchilarga natyurmortni rangtasvirda ishlashga o`rgatish metodikasi. *Science and Education*, 1(8).
7. Pardayev, B. (2020). Ўқувчиларни касб-хунарга йўллаш технологияларини ишлаб чиқиш ва ўқув-тарбия жараёнига татбиқ этиш. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).